



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



BARQAROR HAYOT
xalqaro ijtimoiy-ma'rifat markazi

“ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI”

mavzusida xalqaro miqyosda ilmiy-amaliy anjuman materiallari



“Zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolari” mavzusida xalqaro miqyosda ilmiy-amaliy anjuman materiallari
660 b.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri E.Karimova tahriri ostida chop etildi.

Bosh muharrir:

Z. Raxmanov – Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti rektori v.v.b., iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Mas’ul muharrir:

G. Ibragimova – Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta’lim fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

N. Sh. Umarova – psixologiya fanlari doktori, professor.

V. M. Karimova – psixologiya fanlari doktori, professor.

Z. T. Nishanova – psixologiya fanlari doktori, professor.

D. S. Karshiyeva – psixologiya fanlari doktori, professor.

Nashrga tayyorlovchi:

R. Ashurov – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

To‘plamda keltirilgan maqolalarning mazmuni va keltirilgan statistik ma’lumotlarga mualliflar mas’ul.

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti 2025-yil 10-noyabrda bo‘lib o‘tgan ilmiy texnik kengashda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan

CONTENTS

1-Sho'ba. Zamonaviy psixologiyaning nazariy-metodologik asoslari va muammolari.....	15
YANGI O'ZBEKISTONDA PSIXOLOGIK XIZMAT: DAVLAT SIYOSATI, AMALIY MEXANIZMLARI VA BARQAROR RIVOJLANISH YO'LI	16
Hilola Umarova	
ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	19
Karimova E'zoxon Gapirjonovna	
RAHBAR XODIMLARGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	23
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov	
"DIGITAL TWIN" TEXNOLOGIYASI VA INNOVATSION BOSHQARUV PARADIGMASI	26
Raxmanov Zafar Yashinovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ.....	28
Гайрат Бахрамович Шаумаров	
MACHINE PSYCHOLOGY: BRIDGING HUMAN LEARNING PRINCIPLES AND ARTIFICIAL GENERAL INTELLIGENCE DEVELOPMENT	31
Farkhod Alisherovich Alisherov, Nigora Ruzikulova Shukhratovna	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIVLIK SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA RAHBARLIK FAOLIYATINING PSIXOLOGIK VA TASHKILIY ASOSLARI	39
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna	
TALABALARNING ILMIY INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	44
Abdullayeva Barno Sayfuddinovna	
ONANING O'ZI HAQIDAGI TASAVVURLARINING FARZAND MUNOSABATIGA ALOQADORLIK XUSUSIYATLARI	49
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna	
AVLODLAR KONTEKSTIDA MOLIYAVIY XULQ-ATVOR: PUL PSIXOLOGIYASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAHLILI	53
Umarova Navbahor Shokirovna	
EMOTIONAL BURNOUT AND STRESS AS PSYCHOLOGICAL RISKS OF A NOTARY'S PROFESSIONAL ACTIVITY	56
Arystanbek Aiytmzhan, Aitysheva Aigul Mukataevna	
UYUSHMAGAN YOSHLARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MOSLASHGANLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	59
Atabayeva Nargis Batirovna	
MUAMMOLI PEDAGOGIK VAZIYATLARGA O'QITUVCHI QAROR QABUL QILISHINING DIFFERENSIAL XUSUSIYATLARI	61
P.S.Ergashev	
SPORT BOSHQARUVI SOHASIDAGI DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARIDA OILAVIY VA KASBIY TOLERANTLIK.....	64
O.E. Hayitov	
O'QUVCHILARDA KOGNITIV JARAYONLARINING RIVOJLANISHI INTELLEKT SHAKLLANISHINING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	67
Ashurov Ramzidin Ramazonovich	

INKLYUZIV PSIXOLOGIYA KONSEPSIYASI: IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHINI O'RGANISHDA ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLAR.....	70
Abdullayeva Yulduz Muftillo qizi	
OILAVIY MUNOSABATLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONLARIDA YOSH OILA VAKILLARI XULQIDAGI AYRIM MUAMMOLAR.....	72
V.M. KARIMOVA	
UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDAGI PSIXOLOGIK XIZMATNI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI MASALALARI	75
Akramova Feruza Akmalovna	
TALABALARDA ALTRUIZM NAMOYON BO'LISHIGA SHAXS XUSUSIYATLARINING TA'SIRI	77
Kamolova Nilufar Davir qizi	
PEDAGOGLARDA KASBIY STRESS VA UNING OQIBATLARI	82
Karshiyeva Dilafuz Suyunovna	
SINERGETIK TAFAKKUR — ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONINING INNOVATSION YO'NALISHI.....	84
Masharipova Farog'at Matrasulovna	
OILADA MA'NAVIY, AXLOQIY VA MADANIY MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI	88
Mirabdullayeva Shoiraxon Abdulkayevna	
OLIY TA'LIM MUASSASASI IMIJINI BELGILOVCHI ASOSIY BIXEVIORISTIK KOMPONENTNING ILMIY-NAZARIY TAHLILI	91
Mirashirova Nargiza Anvarovna	
SPORTCHILAR PSIXOFIZIOLOGIK HOLATINI BAHOLASHDA TEPPING-TEST METODIKASI	94
S.U.Nazarov	
ILK O'SPIRINLARDA HAVAS KASB TANLASH MOTIVI SIFATIDA.....	98
Nishanova Zamira Taskayevna	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПСИХОТЕРАПЕВТИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ.....	101
Останов Шухрат Шарифович	
TALABALAR O'ZINI O'ZI FAOLLASHTIRISHI MUAMMOSINING MAHALLIY MUHITDA TADQIQ ETILISHI.....	106
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li	
VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA NAZORATSIZLIK VA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI MASALALARI	109
Qodirov Obid Safarovich, Raxmatov Faxriddin Umarovich	
PSIXOLOGLARNING PROFESSIONAL TAFAKKURI.....	114
Ra'no Ismaylova	
O'ZBEKISTON VA JAHON MAMLAKATLARIDAGI OILAVIY AJRALISHLARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARIDAGI O'ZIGA XOSLIKLARNING EMPIRIK TAHLILI	118
Ro'ziqulov Faxriddin Rasulovich	
SHAXS NAZARIYASIGA MAHALLIY PSIXOLOGLAR TOMONIDAN KOGNITIV YONDASHUV	121
Tursunov Lutfulla Sayfullayevich	
BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY RIVOJLANISHIGA QARATILGAN ILMIY TADQIQOTLAR TAXLILI.....	123
Tuychiyeva Saodat Melikuziyevna	
TA'LIM MENEJMENTIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR - MUVAFFAQIYATLI BOSHQARUVNING ASOSIY OMILI SIFATIDA	126
Umarova Navbahor Shokirovna, Jalolova Nafisa O'ktam qizi	
TALABALARDA RUHIY SALOMATLIKNI MUSTAHKAMLASHDA STRESSGA BARDOSHLILIK VA EMOTSIONAL INTELLEKTNING ROLI.....	128
Xajiyeva Iroda Adambayevna	

ZAMONAVIY GLOBAL MUAMMOLARDA ALTRUIZMNING ROLI	131
Xatamova Ferangiz Ibodullojeva	
QUROLLI TO'QNASHUVLARDAN OLIB KELINGAN BOLALARNI PSIXOLOGIK REABILITATSIYA QILISH MUAMMOLARI	134
S.R.Yuldashev	
ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ МЫСЛИТЕЛЬНЫХ ОПЕРАЦИЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА	137
Алимова Гулчехра Кабелевна	
О'QUVCHILARDA MUVAFFAQIYAT MOTIVATSIYASINI KUCHAYTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	139
Karimov Sherzod Abdurasulovich	
HARBIY XIZMATCHILAR OILALARIDAGI INQIROZLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	142
Sh.S.Kurbanova	
AUDITORLIK QOBILIYATI RAHBAR KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGI KO'RSATKICHI SIFATIDA	145
Xolmurodova Dilnoza Xolmurodovna	
САМОРЕГУЛЯЦИЯ У СТУДЕНТОВ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН.....	149
Махмудова Д.А., Махманова К. Д.	
СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ.....	151
Султанова Амина Анваровна, Дjon Муминова Дильфуза	
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ СТУДЕНТОВ С РАЗНЫМ УРОВНЕМ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ	154
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
2-Sho'ba. Zamonaviy shaxs rivojlanishining ijtimoiy-psixologi muammolari	159
ВЛИЯНИЕ ИНТЕНСИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГАДЖЕТОВ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ЗАЩИТ У ПОДРОСТКОВ	160
Е.Г.Алимова	
ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TA'SIRI	163
Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi	
INKLYUZIV TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK MOSLASHUV JARAYONINI QO'LLAB-QUVVATLASH: SAMARALI PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR	166
Abdullayeva Yulduz Muftillo qizi, Giyazova Zuhro Sattorovna	
ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA QAROR QABUL QILISH SAMARADORLIGI	169
Umarova Navbahor Shokirovna, Artikov Samandar Arzikulovich	
IJTIMOY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA OILA VA OILAVIY QADRIYATLARNING O'RGANILGANLIK HOLATI	172
Abibullaeva Perdegul Ongarbaevna	
OILAVIY JANJALLAR NATIJASIDA YUZAGA KELUVCHI STRESS VA DEPRESSIV HOLATLARNING PSIXODIAGNOSTIKASI.....	174
Boboyeva Feruza Azimjonovna	
ZAMONAVIY O'SMIR SHAXSINING EMOTSIONAL INTELLEKTI RIVOJLANISHIDA IJTIMOY OMILLARNING ROLI.....	178
Ergashev Dilshod Tirkash o'g'li	
PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DIGITAL INFORMATION USE THAT CONTRIBUTE TO THE EROSION OF SOCIAL NORMS IN THE MINDS OF YOUNG PEOPLE	180
Ganiev Maksudjon Najimovich	
ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI	184
Gulnafar Abdullayeva	

RUHIY SALOMATLIKNI SAQLASHDA PSIXOLOGIK OMILLARNING AHAMIYATI.....	187
Hasanova Dilshoda Avazbek qizi	
EMOTSIONAL INTELLEKT - ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHINING IJTIMOY – PSIXOLOGIK MUAMMOSI SIFATIDA.....	190
Ismailova Nilufar Baxadirovna	
OILALARDA INTERNETGA TOBELIKNING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI.....	193
Kushakova Nargiza Islambayevna, Ergasheva Sarvinov Shavqiddin qizi	
AKADEMIK PROKRASTINATSIYANI O'RGANISH BO'YICHA XORIJIY OLIMLAR TAHLILI	196
Mardiyeva Shaxnoza Amirovna	
STEAM TA'LIM VOSITASIDA O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	199
Matkarimova Nilufar	
MAKTABGACHA YOSHDA BOLANING MUVAFFAQIYATLI IJTIMOYILASHUVI MEZONLARI	203
Norbosheva Maqsuda Achilovna	
DEVIANT XULQ-ATVORLI O'SMIR QIZLARDA HIMOYA MEXANIZMLARINING IJTIMOYILASHUVGA TA'SIRI	206
Parpiyeva Shaxnoza	
PSIXOLOGIYADA O'ZINI O'ZI FAOLLASHTIRISH FENOMENIGA NISBATAN ILMIY YONDASHUVLAR.....	209
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li, Istamburiyev Muhammadali Abdulazizovich	
VELOSIPED SPORT TURI BILAN SHUG'ULLANUVCHILARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	212
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
SOCIO-PSYCHOLOGICAL CONSEQUENCES OF CYBERBULLYING ON ADOLESCENTS' INTERPERSONAL COMMUNICATION	215
Salomov Shamsiddin Sabokhiddin ugli	
RUHIY SALOMATLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH ORQALI BO'LAJAK LOGOPEDLARNING INKLYUZIV FAOLIYATGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI OSHIRISH	219
Sharifova Maxliyo Zarif qizi	
TALABALARDA TA'LIM JARAYONIGA MOSLASHISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	222
Ubaydullayev Nuriddin Toxir o'g'li	
PEDAGOGIK JAMOALARDA PROJECT MANAGEMENT METODLARINING JAMOAVIY MOTIVATSIYAGA TA'SIRI.....	225
Umarova Navbahor Shokirovna, Ashurov Muhammad Zokir o'g'li	
AYOLLARDA KASB VA OILA MUVOZANATINI TA'MINLASHNING PSIXOLOGIK OMILLARI	227
Zuxra Mansurxonova	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ СПОСОБЫ ВЫЯВЛЕНИЯ КРИМИНАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ	230
Пардаева Умида Мухтар қизи	
PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE LIFE POSITION OF UNORGANIZED YOUTH.....	234
Atabayeva Nargis Batirovna, Alimjonova Durdona Yunusjon qizi	
YOSHLARNI OTA-ONALIK MAS'ULIYATIGA TAYYORLASH - PSIXOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOSI SIFATIDA.....	238
Bilolova Zamira Baxtiyarovna	
OTA-ONA VA FARZAND MUNOSABATLARINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	241
D.U.Abdullayeva, I.X.Panjiyeva	
SHAXS IJTIMOY MOSLASHUVIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLARNING O'ZIGA XOSLIGI	244
Dusboyev Asliddin Turgunovich	
PSYCHOLINGUISTIC FOUNDATIONS OF SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE AND ITS STRUCTURAL COMPONENTS.....	247
G.A.Valiyeva	

YOSH OILALARNING MUSTAHKAMLIGIGA ZAMONAVIY AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING TA'SIRI.....	250
Kushakova Nargiza Islambaevna	
TALABALARDA IJTIMOY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIK SHAKLLANISHINING DINAMIK XUSUSIYATLARI.....	253
Nazarova Malohat Axmedovna	
SOCIO-PSYCHOLOGICAL CONSEQUENCES OF CYBERBULLYING ON ADOLESCENTS' INTERPERSONAL COMMUNICATION	255
Salomov Shamsiddin Sabokhiddin ugli	
OTA-ONA VA FARZAND MUNOSABATLARINI BARQARORLASHTIRISHDA AFILIATSIYA MOTIVINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	259
Samatova Sevara G'ayratovna	
GENDER STEREOTIPLARI - QABUL QILINGAN ME'YOR VA QOIDALARGA XULQ-ATVORINI MOSLASHTIRISH.....	263
Saribayeva Umida Sattarovna	
DINIY MUTAASSIBLIK, EKSTREMIZM VA TERRORCHILIKNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	266
Sobirov Jamoliddin, Nazarov A.S.	
O'QUVCHI YOSHLARNING O'ZARO MUNOSABATLARIDA TEAM BUILDING TA'SIRI VA AHAMIYATI.....	267
Turayev Nurmuhhammad Alibek	
O'SMIRLARDA DEVIANT XULQNING KONATIV ASPEKTLARI BO'YICHA PSIXODIAGNOSTIK TAHLIL (HUDUDIIY VA GENDER FARQLARI MISOLIDA)	269
Turayeva Gulchehra Urayimovna	
TALABALAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK JIHATLARI	273
Umarov Saidnemat Burxanovich	
O'SMIRLIK DAVRIDA DEVIANT XULQ-ATVOR NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	275
Umarova Navbahor Shakirovna, Xalilova Sarvinoz Qodirali qizi	
TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARISHDA KOGNITIV MENEJMENT YANGI MODEL SIFATIDA	278
Umarova Navbahor Shokirovna, Sadinova Marjona Akmal qizi	
SPORTCHILAR OILASIDAGI SIBLINGLAR MUNOSABATLARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	281
G.H.Usmonova	
YOSHLAR PSIXOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLAR TIZIMI VA IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARNING O'ZARO TA'SIRI: NAZARIY ASOSLAR VA EMPIRIK TAHLIL.....	283
X.A. Bobanov	
KIBERIJTIMOYLAHUV IJTIMOY PSIXOLOGIK HODISA SIFATIDA.....	287
Yuldashev S.R., Muhiddinova M.N	
MILLIY VA DINIY URF-ODAT VA AN'ANALARDA AXLOQ NORMALARINING MUJASSAMLASHGANLIGI.....	289
D.Sh.Yuldashova, Miraliyeva Zulayxo Abdurauf qizi, Xidirova Gulhayo Muhiddin qizi	
РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ-ПСИХОЛОГОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ	292
Аскарова Гулрух, Ашурова Анастасия	
КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТАНОВЛЕНИЯ ПЕДАГОГА-ПСИХОЛОГА.....	296
Аскарова Гулрух, Рахимова Робиябону	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ОБРАЗА «Я» У ПОДРОСТКОВ.....	300
Махмудова Диларом Ахмадовна, Сафаев Музаффар Зафар угли	
СЕМЕЙНАЯ СИНЕРГИЯ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ “Я-КОНЦЕПЦИИ” В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ	303
Одилова Наира Гулямовна	

3-Sho'ba. Yosh va pedagogik psixologiya: ta'lim-tarbiya jarayonidagi muammolar	307
TA'LIM MUASSASALARIDA PSIXOLOGIK KONTRAKTNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TASHKILIY-PSIXOLOGIK INTERVENSIYALAR	308
Umarova Navbahor Shokirovna, Bayzaqova Madina Ibragimovna	
TA'LIM OLIH JARAYONIDA STRESSGA BARQARORLIK NAMOYON BO'LISHINING YOSH PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	312
N.Z.Ismoilova, M.K.Ismoilova	
BOLALARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING PSIXOLOGIK TA'SIRI	315
Aliyeva Kamola Saidnegmatovna, Tulqunova Barnooy Behzodjon qizi	
PEDAGOGLARDA KASBIY STRESSNING NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI	317
Boymirzayeva Nafisaxon Baxodir qizi	
O'ZBEKISTONDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI	321
G.M.Qurbonova	
PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DIGITAL INFORMATION USE THAT CONTRIBUTE TO THE EROSION OF SOCIAL NORMS IN THE MINDS OF YOUNG PEOPLE	324
Ganiev Maksudjon Najimovich	
TALABALARDA PROKRASTINATSIYA DARAJASINI KAMAYTIRISH VA OLDINI OLIHNING NAZARIY TAHLILI	328
Ismailov Sanjarbek Sherzod o'g'li	
O'SMIRLARDA DEVIANT XULQ SHAKLLANISHINING OTA-ONA MUNOSABATLARI BILAN BOG'LIQLIGI	331
Mo'minova Dilrabo Murodillayevna	
O'SMIRLIK DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	334
N.Z.Ismoilova, S.S.Berdiyeva, H.T.Baxriddinova	
ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN O'SMIRLAR ORASIDA COPING STRATEGIYALARINING SHAKLLANISHIGA IJTIMOIIY QO'LLAB-QUVVATLASH OMILLARINING TA'SIRI	337
Nishanova Zamira Taskarayevna, Komilova Komila Inomjon qizi	
O'SMIRLARNI AGRESSIV XULQ-ATVOR FENOMENINI PSIXOLOGIK JIHLATLARINI O'RGANISH	339
Norqulova Dildora Shavkat qizi	
OLIIY TALIM PEDAGOGLARDA FRUSTRATSION TOLERANTLIKNI NAMOYON BOLISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	342
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li	
TALABALAR O'ZINI O'ZI FAOLLASHTIRISHI MUAMMOSINING MAHALLIIY MUHITDA TADQIQ ETILISHI	345
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li	
TALABALARDA TADQIQOTCHILIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	348
Saidakbarova Nigora	
O'SMIRLIK DAVRIDA DEVIANT XULQNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	351
Sattarova Shahnoza Qo'chqarovna, Erkinjonova Raximaxon Baxtiyor qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA "WELL-BEING MANAGEMENT" TIZIMINI JORII ETISH: IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK YONDASHUV DOIRASIDAGI TAHLIL	353
Umarova Navbahor Shokirovna, Muminov Temurbek Uralbaevich	
GLOBALASHUV DAVRIDA O'SMIRLARNING HAYOTIDA PSIXOLOGIYANING AHAMIYATI	356
Xolmuratova Mahbuba Maxmudovna, Mannonov Hamid Xolmurod o'g'li, Isroilova Sevinch Sobirjon qizi	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОПИНГ-СТРАТЕГИЙ ПЕДАГОГОВ В СТРЕССОВЫХ СИТУАЦИЯХ	359
Аскарова Гулрух Оринбасаровна, Халматова Мумтоза Зафаржон кизи	

ВЛИЯНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА МЕЖЛИЧНОСТНЫЕ ОТНОШЕНИЯ.....	363
Лутфуллаева И.А.	
RIVOJLANGAN XORIYIY MAMLAKATLAR TA'LIM TIZIMIDA MAKTAB DIREKTORLARINING BOSHQARUV MADANIYATI.....	365
Abdulxayeva M.B.	
INNOVATSION TALIM TIZIMIDA TALABALARNI KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI.....	369
Masharipova Saida Rahimovna, Jiyonboeva Sadokat Shonazarovna	
FORMATION OF SOCIO-COMMUNICATIVE SKILLS IN STUDENTS THROUGH BILINGUISTICS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH.....	372
Najmiddinova Gulnoza Odilovna	
O'QITISH JARAYONIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI.....	376
Safarova Dilnoza Kuchkarovna, Kasimova Dildora Xusanovna	
ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI	379
Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi, Saydiraxmonova Durdona Abror qizi	
PEDAGOGIYALARDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI	382
Sh.D.Ablakulov	
PSYCHOLOGICAL BASES OF POSITIVE PSYCHOLOGY AND POSITIVITY IN PEDAGOGICAL ACTIVITY	385
Shakhnoza Sattarova Kochkarovna	
PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF PROFESSIONAL ADAPTATION	388
Shodiyeva Rayhon Saydullayevna	
YOSH VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA: TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI MUAMMOLAR.....	391
Tuqboyeva Dilshoda Zaynievna, Saliddinova Nilufar Lochin qizi	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM DASTURLARINI XALQARO AKKREDITATSIYADAN O'TKAZISH TAJRIBASI.....	393
Tursunov Tajimurad Mirsaidovich, Berdiqulov Ravshan Shavkatovich	
PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA PEDAGOGIKANING ILMIY VA AMALIY SOHASI SIFATIDA	396
Umarova Malika Xisabidinovna, Xolboboyeva M.A.	
TA'LIM MUASSASALARIDA LIDERLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI.....	399
Umarova Navbahor Shokirovna, Sobirova Shahlo Saminjonovna	
O'QUV MOTIVATSIYASI MUAMMOSI XORIY PSIXOLOGIYASIDA TADQIQOTLAR PREDMETI SIFATIDA.....	402
D.Sh.Yuldashova	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ НАУК.....	405
Алиева Камола Саиднегматовна	
ФОРМИРОВАНИЕ КОГНИТИВНОЙ АКТИВНОСТИ КАК ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НАУЧНОГО ИНТЕЛЛЕКТА ПЕДАГОГА.....	408
Анварова Хуснора Давронбек кизи	
ЗНАЧЕНИЕ И РОЛЬ АРТ-ТЕРАПИИ В РАБОТЕ С ДЕТЬМИ	411
Асанова Гузаль Мухарамовна, Нуруллаев Адхамбек	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОВЛАДАЮЩЕГО ПОВЕДЕНИЯ У МОЛОДЕЖИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ	414
Аскарлова Гулрух Оринбасаровна	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФРУСТРАЦИОННОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ.....	418
Аскарлова Гулрух Оринбасаровна, Рустамова Мубина Эркин кизи	

10

O'SPIRINLARNING IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI.....	478
Salomov Shamsiddin Saboxiddin o'g'li, Yaxshiboyeva Ruxshona Husniddin qizi, Alimjonova Durdona Yunusjon qizi	
MOSLASHUVCHAN XULQ-ATVOR XUSUSIYATI, IFODALANISH MUAMMOLARI.....	482
Sh.B.Qurbanova	
KONCHILIK VA QAZIB OLISH SANOATI SOHASIDA PSIXOLOGIK SALOMATLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMI	487
Sh.U. Turobova	
SHAXS VAQTINI IDROK ETISH VA BOSHQARISHNING TO'RT USULI	491
Solayev Og'abek Ilhombek o'g'li	
AYBDORLIK HISSINING NAMOYON BO'LISHI: XORIY OLIMLARI TADQIQOTLARIDA YORITILISH	494
Sultanova Saida Muhiddin qizi	
EDUKOLOGIYA VA KOMMUNIKATSIYANING KESISHGAN NUQTALARI: METODOLOGIK QARASHLAR TAHLILI.....	496
To'g'onboyeva Qizlarxon Ikromjon qizi, Ruzmetova Xilola Abdusharipovna	
ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLAR.....	501
Tuqboeva Dilshoda Zaynievna, Mardonova Mardona Farhodovna	
CORRECTION OF ANXIETY IN CHILDREN.....	503
Umarova M.Kh., Sabirova N. I.	
PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING MAQSADI VA SHAXS RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	505
Umarova Malika Xisabidinovna, Abdurasulova Ra'no Saloxiddinovna	
VIRTUAL MUZEYLAR VA ULARNING TARBIYAVIY IMKONIYATLARI	508
Voxidova N.X., Yusupova M. U.	
O'SMIR YOSHIDAGI O'QUVCHILAR SAMARALI MULOQATIDA O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV SIFATLARI NAMOYON BO'LISHI.....	510
Xalmuratova Dilaram Abdikarimovna, Saydazimova Ziyoda Baxtiyor qizi, Nurmuhammedova Mohidil Nodir qizi	
O'SMIRLARNING PUL HAQIDAGI IJTIMOYIY TASAVVURLARI SHAKLLANISHIDA ETNOPSIXOLOGIK QADRIYATLAR VA MADANIY IDENTIFIKATSIYA OMILLARINING O'ZARO TA'SIRI	512
Xolmuratova Mahbuba Maxmudovna	
INSON PSIXIKASI TASHQI MUHIT VA ICHKI HOLAT O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR NATIJASIDA SHAKLLANISHI	515
Xolmurotova Mahbuba Mahmudovna, Ergashova Shaxinabonu Boboqulovna, Safarova Lobar Alisherovna	
ОТКЛАДЫВАНИЕ ДЕЛ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ: МЕХАНИЗМЫ И ПРИЧИНЫ ПРОКРАСТИНАЦИИ	518
Асанова Гузаль Мухарамовна, Ганибекова Ситора	
ДЕВИАНТНОЕ ПОВЕДЕНИЕ У ПОДРОСТКОВ	521
Аскарова Гулрух Оринбасаровна, Шапранова Милана Павловна	
МОТИВАЦИОННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОСУЖДЕННЫХ К ТРУДОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ОБУЧЕНИЮ В ПЕНИТЕНЦИАРНОЙ СИСТЕМЕ	525
М.А.Сайдуллаева	
5-Sho'ba. Shaxsning ruhiy salomatligi va salomatlik psixologiyasining dolzarb masalalari.....	529
O'SMIRLIK DAVRIDAGI BOLALARDA AGRESSIYANING NAMOYON BO'LISHI VA UNI BARTARAF ETISH USULLARI.....	530
Jalilova S.X., Aloyeva F., G'aybullaeva A.	
TA'LIM MUASSASALARIDA HR-MENEJMENT TIZIMINI JORIY ETISHNING SAMARADORLIGI.....	533
Umarova Navbahor Shokirovna, Bekmurotova Kamola Xasanovna	
BOLALARNI ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI.....	535
Abbosova Uzrobonu Erkin qizi	

AUTIZM SPEKTRI BUZILISHI BO'LGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA VIDEOMODELLASHTIRISHNING IJTIMOY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.....	538
Atabayeva Dilrabo Ixtiyor qizi	
GLOBAL O'ZGARISHLAR FONIDA KASBIY STRESS.....	543
Bog'bekova Dilnoza Shonazarovna	
GIPERTONIYA BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA STRESSNI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	546
Eshchanova Nasiba Matnazarovna	
SHAXSNING RUHIY SALOMATLIGI VA SALOMATLIK PSIXOLOGIYASINING DOLZARB MASALALARI	549
Inogamova Shaxzoda Raximovna	
NEUROPROTECTIVE PROPERTIES OF PROPOFOL AND SEVOFLURAN: POSSIBILITIES OF PREVENTING THE DEVELOPMENT OF DYSFUNCTION IN COGNITIVE PROCESSES	553
Karimova G. Kh., Khodjimurodova M. Yu.	
YETUKLIK DAVRIDA INSULT TASHXISLI BEMORLAR BILAN PSIXOKORREKSION ISH OLIB BORISHNING DASTURIY ASOSLARI.....	556
L.U.Atajanova	
SHAXS RUHIY SALOMATLIGINING PSIXOLOGIK VA IJTIMOY DETERMINANTLARI.....	558
N.A.Saidakbarova, Karimova Gulnoza	
GIPERTONIYA KASALLIGIDA BEMORLARDA NARKOZDAN SO'NG XOTIRANI O'ZGARISHI.....	561
Karimova Gulchehra Xamidullayevna, Axmatova Diyora Donyor qizi, Ulug'babayeva Soliha G'ayratjon qizi	
ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLAR BILAN PSIXOLOGIK MASLAHAT TASHKIL ETISH TAMOYILLARI.....	564
Nazarova Muharram Yunus qizi	
SHAXS RIVOJLANISHI VA SALOMATLIGINI ASRASHDA IJTIMOY TARMOQLARNING O'RNI.....	567
O.M. Zaripov	
BULLING VA ZO'RAVONLIK HOLATLARINING PSIXOLOGIK, IJTIMOY VA PEDAGOGIK OMILLARI	569
Qarshiyeva Dilafruz, Sattorova Mohinur Sherali qizi	
MAHALLIY NARKOZ PAYTIDA TAFAKKURNING YO'QOLMASLIGI.....	572
Karimova Gulchehra Xamidullayevna, Nizomova Munisa Amriddinova, Raximova Shaxnoza Ravshanovna	
SHAXSNING RUHIY SALOMATLIGI VA SALOMATLIK PSIXOLOGIYASINING DOLZARB MASALALARI	575
Pulatova Gulnoza Murodilovna, Umrzaqova Gulzoda Abdurahmon qizi	
NEVROTIK BEMORLARDA XISSIY O'ZGARISHLAR	578
Karimova Gulchehra Xamidullayevna, Ostonayeva Novbaxor Mamaraimovna, Inomova Odina Abdulvohid qizi	
COVID-19 PANDEMIYASINING INSON RUHIYATIGA TA'RISI.....	581
Qadirova Shahnoza Saidabdullayevna	
NARKOZDAN SO'NG BEMORLARDA XOTIRANI TIKLANISHI.....	584
Karimova Gulchehra Xamidullayevna, Shukurova Nigora Quدراتila qizi	
NUTQIDA KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN PSIXOKORREKSION ISHLAR TIZIMI	587
S.A.Mamatisayeva	
OPERATSIYADAN SO'NG SEZGI JARAYONLARINING TIKLANISHI.....	590
Karimova Gulchehra Xamidullayevna, Tojiyeva Go'zal Karimjonovna, Ollamova Nargiza Hamdam qizi	
TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA “DIGITAL TWIN” (RAQAMLI EGIZAK) TEXNOLOGIYASI ASOSIDA MODELLASHTIRISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	593
Umarova Navbahor Shokirovna, Gaymnazarov Odiljon Kurbanovich	

BOLALIKDAGI PSIXOLOGIK JAROHLARNING O'SMIR SHAXSIY IDENTIFIKATSIYASI SHAKLLANISHIGA TA'SIRI: RETROSPEKTIV TAHLIL ASOSIDAGI YONDASHUV.....	596
Xudayberganova Roziya Nurniyazovna	
BOLALARDA NARKOZDAN SO'NG SEZGINI YUQORI BO'LISHI	599
Karimova Gulchehra Xamidullayevna, Zakirova Sadoqat Kudaybergenovna, Yangiboyev Zokir Tohir o'g'li	
НЕВРОЗЫ У ДЕТЕЙ: ПРИЧИНЫ И СИМПТОМЫ.....	602
Абдурахимов Дониёр Абдусаидович	
INVESTIGATION OF THE RECOVERY OF COGNITIVE PROCESSES AND MEMORY FUNCTIONS AFTER GENERAL ANESTHESIA THROUGH NEUROPSYCHOLOGICAL AND PHYSIOLOGICAL MEASUREMENTS.....	605
Karimova Gulchexra Khamidullayevna	
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ И ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ЖИЗНИ СЕМЬИ В УСЛОВИЯХ БОЛЕЗНИ РЕБЁНКА.....	608
Асанова Гузаль Мухарамовна	
NARKOZDAN SO'NG UYQU BUZILISHLARI	612
Karimova Gulchexra Xamidullayevna, Kilichova Gulnoza Bobomurotova, Xalikova Shaxzoda Radjabovna	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДЕТСКОГО АУТИЗМА: ФАКТОРЫ, ПРОЯВЛЕНИЯ, ПРОБЛЕМЫ.....	616
Асрарханова Эътибор Абдувахаб қизи	
БЕССОННИЦА И ПСИХОЛОГИЯ: ВЫЗОВЫ И ЦИФРОВЫЕ РЕШЕНИЯ (с включением проекта «Веб-приложение для людей, страдающих бессонницей»).....	620
Туракулова И. Х., Делеверханов С. А.	
ILK O'SPIRINLARDA STRESSNI KELITIRIB CHIQRUVCHI OMILLAR HAQIDAGI TASAVVURLARNING O'ZIGA XOSLIGI	623
N.Z.Ismoilova	
STRESSGA BARDOSHLILIK – SHAXS RUHIY SALOMATLIGINING ASOSI SIFATIDA	626
Ruzmatova Nigina Shotilla qizi	
O'SMIRLIK DAVRIDA XULQIY OG'ISHLARNI KORREKSIYALASH USULLARI.....	629
To'raboyev Azamat Muxamadullayevich	
SCIENTIFIC APPROACHES TO THE FORMATION OF STRESS RESISTANCE	632
Tuychiyeva Shakhlo Shavkatovna	
TALABALARDA RUHIY SALOMATLIKNI MUSTAHKAMLASHDA STRESSGA BARDOSHLILIK VA EMOTSIONAL INTELEKTNING ROLI.....	634
Xajiyeva Iroda Adambayevna	
MASS-MEDIANI TA'SIRI OSTIDAGI O'Z JONIGA QASD QILISH: VERTER SINDROMI PSIXOLOGIYASI TAHLILI.....	637
Xudoyberganova Sharofat G'ofurjon qizi	
NERV KASALLIKLARDA BEMORLARDA HISSIY O'ZGARISHLARI.....	641
Xujamova Ruhshona G'olib qizi	
СУИЦИДАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ У ДЕВУШЕК-ПОДРОСТКОВ.....	643
Аскарлова Гулрух Оринбасаровна, Абдуллина Аделина Маратовна	
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ В СУДЕБНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЕ	647
Мухтарова Азиза Эркиновна	
INTROVERT VA EKSTROVERT SHAXSLARNING INGLIZ TILINI O'ZLASHTIRISHDAGI PSIXOLOGIK FARQLARI.....	650
Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna, Ochilova Xurshida Bahromovna	
BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING TANQIDIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI	652
Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna, Yusupova Xursanoy Fazliddin qizi	
МЕНЕДЖМЕНТ ИММЕРСИВНОЙ ИНКЛЮЗИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ	655
Оманова Гулноза Абдиназаровна	

KO'P MILLATLI TA'LIM MUASSASALARIDA YETAKCHILIK USLUBLARINING ETNOPSIXOLOGIK JIHATLARI	658
Umarova Navbahor Shokirovna, G'ayratova Malohat O'tkir qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONIDA BIXEVIORIAL MENEJMENT NAZARIYASINING MOHIYATI.....	660
Umarova Navbahor Shokirovna, Sangirova Nargiza Yuldashevna	

MASS-MEDIANI TA’SIRI OSTIDAGI O’Z JONIGA QASD QILISH: VERTER SINDROMI PSIXOLOGIYASI TAHLILI

Xudoyberganova Sharofat G’ofurjon qizi

Xorazm viloyati pedagogik
mahorat markazi “Pedagogika va psixologiya,
ta’lim texnologiyalari” kafedrası o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mass-media vositalarining o’z joniga qasd qilish hodisasiga ta’siri, xususan, Verter effekt fenomeni psixologiyasi tahlil qilinadi. Verter effekti — mashhur badiiy yoki ommaviy axborot vositalarida tasvirlangan o’z joniga qasd qilish holatidan so’ng yuzaga keladigan taqlidiy o’z joniga qasd qilish to’lqinidir. Maqolada, ommaviy axborot vositalarining yoshlar ongiga ta’siri, taqlidiy xatti-harakatlarning yuzaga kelish mexanizmlari va psixologik oqibatları o’rganiladi.

Kalit so’zlar: Verter sindromi, O’z joniga qasd qilish, Mass-mediani ta’siri, Psixologik tahlil, Ijtimoiy psixologiya, Suitsidal xatti-harakatlar, Media va suitsid.

Abstract: This article explores the influence of mass media on suicidal behavior, with a particular focus on the psychological analysis of the Werther effect. The Werther effect refers to a wave of imitative suicides that occur following a widely publicized suicide case in literature or the media. The study examines the impact of mass media on youth consciousness, the mechanisms behind imitative behavior, and its psychological consequences.

Key words: Werther effect, suicide, media influence, psychological analysis, social psychology, suicidal behavior, media and suicide.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние средств массовой информации на феномен самоубийства, в частности, психологический анализ эффекта Вертера. Эффект Вертера — это волна подражательных суицидов, возникающая после широко освещённого случая самоубийства в художественной литературе или СМИ. В статье исследуется влияние массовой информации на сознание молодежи, механизмы формирования подражательного поведения и его психологические последствия.

Ключевые слова: эффект Вертера, самоубийство, влияние СМИ, психологический анализ, социальная психология, суицидальное поведение, медиа и суицид.

KIRISH

Zamonaviy axborot asrida mass-media vositalari inson ongiga kuchli ta’sir ko’rsatadigan asosiy ijtimoiy institutlardan biriga aylangan. Ayniqsa, yoshlar ongining shakllanishida televideniye, internet, ijtimoiy tarmoqlar va badiiy adabiyotning roli nihoyatda muhimdir. So’nggi yillarda ommaviy axborot vositalarida suitsid holatlarining keng yoritilishi ushbu mavzuni psixologik va ijtimoiy nuqtai nazardan chuqur o’rganishni taqozo etmoqda.

Ushbu kontekstda, “Verter effekti” (yoki ommaviy suitsid taqlidchiligi) fenomeni alohida ahamiyat kasb etadi. Verter effekti — bu badiiy asarlar yoki ommaviy axborot vositalarida tasvirlangan o’z joniga qasd qilish holatlaridan so’ng ayrim shaxslarda yuzaga keladigan taqlidiy suitsidal xatti-harakatlar to’lqinidir. Ushbu hodisa ayniqsa psixologik jihatdan zaif, o’ziga xos hayotiy muammolarni boshdan kechirayotgan shaxslarda ko’proq kuzatiladi.

Mazkur maqolada mass-media vositalarining suitsid holatlariga bo’lgan ta’siri, Verter effekti psixologiyasi, yoshlar ongida yuzaga keladigan taqlidiy xatti-harakatlarning shakllanish mexanizmlari hamda bunday xatti-harakatlarning oldini olish yo’llari atroflicha tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi — sog’lom axborot muhitini shakllantirish, axborot vositalarining mas’uliyatli yondashuvini targ’ib qilish hamda suitsidal xatti-harakatlarning psixologik ildizlarini aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O’z joniga qasd qilish masalasi psixologiya, sotsiologiya va axborotshunoslik fanlarida eng dolzarb va murakkab muammolardan biri sifatida keng o’rganib kelinmoqda. Tadqiqotlarda ayniqsa mass-media

vositalarining suitsidal xatti-harakatlarga bo'lgan ta'siri alohida e'tiborga olinmoqda. Ushbu kontekstda Verter effekti terminiga birinchi bor Devid Fillips (David Phillips, 1974) tomonidan ilmiy asoslangan yondashuv taklif etilgan. U mashhur odamlarning yoki ommaviy yoritilgan suitsid holatlarining ortidan yuzaga kelgan suitsid to'liqlarini statistik ma'lumotlar asosida isbotlagan.

Gyotening 1774-yilda chop etilgan “Yosh Verterning iztiroblari” romani ilk ommaviy suitsid to'liqiga sabab bo'lgan deb hisoblanadi. Mazkur asardan so'ng ko'plab yoshlar bosh qahramon singari hayotdan voz kechgan, bu esa jamiyatda “taqlid suitsidi” (imitational suicide) deb nomlangan hodisani yuzaga keltirgan. Bu hodisani izohlaydigan asosiy psixologik tushuncha — modeling (ya'ni boshqalarning xatti-harakatlarini o'ziga ko'chirish), ijtimoiy o'rganish nazariyasi (Albert Bandura) bilan bog'liq.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar, xususan, Pirkis & Blood (2001), Stack (2005), Niederkroenthaler et al. (2010) kabi olimlarning ishlari, mass-media vositalarining suitsidal xatti-harakatlarga bo'lgan kuchli ta'sirini ko'rsatadi. Ayniqsa, grafik tasvirlar, dramatik ifodalar, o'z joniga qasd qilish usullari haqidagi tafsilotlar yosh auditoriyaga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Yana bir muhim ilmiy yo'nalish bu — Papageno effekti, ya'ni mass-media orqali suitsiddan voz kechishga undovchi, umid baxsh etuvchi syujetlar yordamida suitsid xavfini kamaytirish mumkinligi haqidagi konsepsiyadir. Bu tamoyil ommaviy axborot vositalarining profilaktik vosita sifatida foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston kontekstida bu mavzu hanuzgacha yetarlicha chuqur o'rganilmagan bo'lsa-da, so'nggi yillarda yoshlar orasida axborot oqimining kuchayishi, ijtimoiy tarmoqlarda suitsidga oid kontentlarning tarqalishi mazkur masalani dolzarb etmoqda. Shu bois, xalqaro tajribalar asosida olib boriladigan mahalliy tadqiqotlar, ayniqsa yoshlar psixologiyasiga oid ishlanmalar muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA

Mass-media vositalari jamiyatning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi muhim omil bo'lishi bilan birga, inson psixologiyasiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi kuchli vositadir. Ayniqsa, yoshlar va emotsional jihatdan barqaror bo'lmagan shaxslar uchun ommaviy axborot vositalarida yoritilgan suitsid voqealari sezilarli darajada psixologik bosim manbai bo'lishi mumkin. Verter effekti bu hodisaning eng yorqin namunasi sifatida ilmiy doiralarda o'z o'rnini topgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mass-media vositalarida suitsid holatlarini sensatsion, romantik yoki qahramonlik tusida ko'rsatish taqlidiy suitsidlarning ko'payishiga olib keladi. Ayniqsa, mashhur shaxslar yoki yoshlar orasida ommalashgan personajlarning o'z joniga qasd qilish holatlari ommaviy axborot vositalarida keng yoritilganda, shu yosh toifasidagi boshqa shaxslar ham shunga o'xshash xatti-harakatni amalga oshirishga moyillik bildiradi. Bu holatni psixologiyada ijtimoiy o'rganish va modeling tushunchalari orqali izohlash mumkin.

Shuningdek, ushbu hodisaning salbiy oqibatlari nafaqat individual shaxslarda, balki butun jamiyat miqyosida ham sezilishi mumkin. Ommaviy suitsid holatlari ijtimoiy beqarorlik, ruhiy tushkunlik, qo'rquv va befarqlik muhitini kuchaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, umumiy psixologik salomatlik darajasining pasayishiga olib keladi.

Verter effektining paydo bo'lishi uchun quyidagi omillar muhim rol o'ynashi mumkin:

- Media kontentning xususiyati: dramatik, hissiyotga boy va tafsilotlarga boy tarzda yoritilishi;
- Tomoshabinning psixologik holati: emotsional beqarorlik, depressiv kayfiyat, yolg'izlik hissi;
- Yosh omili: o'smirlar va yoshlar eng ko'p ta'sirchan toifa hisoblanadi;
- Media savodxonligi darajasi: axborotni tahlil qila olish, emotsional filtrlash ko'nikmalarining pastligi.

Biroq, mass-media vositalari salbiy ta'sir manbai bo'lishi bilan birga, suitsidning oldini olishda ijobiy vosita ham bo'lishi mumkin. Papageno effekti buning isbotidir — ya'ni media orqali insonlarga hayotda muqobil yechimlar, umid, ijobiy hikoyalar ko'rsatish orqali suitsidal fikrlarning oldi olinadi. Shu sababli, media vakillari tomonidan suitsidga oid materiallarni yoritishda maxsus axloqiy me'yorlarga amal qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Ushbu muammo ayniqsa O'zbekiston kabi yoshlar soni ko'pchilikni tashkil etadigan jamiyatlar uchun dolzarbdir. Afsuski, hozirda suitsid holatlari haqida rasmiy statistik ma'lumotlar yetarli darajada ochiq emas, bu esa muammoning chuqur o'rganilishiga to'sqinlik qilmoqda. Biroq ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan kontentlar yoshlar ongiga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda, shuning uchun ham bu boradagi media siyosatini qayta ko'rib chiqish, sog'lom axborot muhitini shakllantirish zarur.

NATIJALAR TAHLILI

Maqola doirasida o'tkazilgan amaliy tadqiqotlarda 16 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan 150 nafar respondent (o'smirlar va talabalar) o'rtasida anketa so'rovi o'tkazildi. Shuningdek, 5 nafar psixolog, maktab va kollej pedagoglari bilan intervyu tashkil etildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023–2024 yillardagi ochiq statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

Mass-media suitsid holatlariga ta'sir ko'rsatmoqda (anketa natijalari)

Savol	“Ha” deb javob berganlar	Foiz
So'nggi bir yil ichida OAVda suitsidga oid kontent ko'rganmisiz?	126 kishi	84%
O'z joniga qasd qilishga oid film, serial yoki ijtimoiy tarmoq postlari sizda ta'sir uyg'otganmi?	98 kishi	65%
Suitsid mavzusida ochiq suhbatlar olib borilganini xohlaysizmi?	132 kishi	88%

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, yoshlar ommaviy suitsid kontentlariga juda ko'p duch kelmoqda va bu mavzu ular uchun psixologik jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Psixologlar va pedagoglar fikriga ko'ra yoshlar mass-media orqali ruhiy bosim ostida qolmoqda (intervyu natijalari)

Mutaxassislar bilan o'tkazilgan intervylarda quyidagi umumiy fikrlar bildirildi:

- Mass-media suitsidni ko'pincha muqobil yechim sifatida yoritmoqda.
- O'smirlar, ayniqsa, real hayotdagi muammolarni hal qila olmayotgan yoshlar bunday kontentga tezda emotsional bog'lanib qoladi.

• Ijtimoiy tarmoqlarda (Telegram, TikTok, Instagram) tarqalayotgan suitsid haqidagi kontentlar, ayniqsa “qahramonlik suitsidi” ko'rinishida berilgani, yosh ongiga xavf solmoqda.

- Psixologik yordamga muhtoj yoshlar ko'p, ammo murojaat qilish darajasi past.

Statistik ma'lumotlar tahlikali holatni ko'rsatmoqda (Sog'liqni saqlash vazirligi 2023–2024)

Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlariga ko'ra:

- 2023 yilda 15–24 yosh oralig'ida o'z joniga qasd qilish bilan bog'liq rasmiy qayd etilgan holatlar soni 278 tani tashkil etgan.

- Bu ko'rsatkich 2022 yilga nisbatan 11% o'sishni ko'rsatmoqda.

- Ko'pchilik holatlar aynan media orqali tarqalgan suitsid holatlaridan so'ng sodir bo'lgan (xususan, mashhur bloger yoki tanilgan shaxslarning vafotidan so'ng).

Yoshlarning psixologik holati xavotirli (anketa va kuzatuv asosida)

Anketa orqali quyidagilar ham ma'lum bo'ldi:

- Respondentlarning 43 foizi hayotida hech bo'lmaganda bir marta suitsidal fikrlar haqida o'ylaganini bildirgan.

- 27 foiz respondent o'z muammolarini hech kim bilan muhokama qilmasligini aytgan.

- 59 foiz respondent media orqali ruhiy bosimga uchraganini yoki o'zini qiyoslaganini bildirgan.

Bu raqamlar yoshlarning ruhiy salomatligi, emotsional mustahkamligi va media bilan aloqasi o'rtasidagi bog'liqlikni yaqqol ko'rsatib turibdi.

XULOSALAR

Olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Verter effekti — mass-media vositalarida suitsid holatlarini romantik, dramatik yoki qahramonlik ko'rinishida yoritilishi natijasida yuzaga keladigan taqlidiy suitsid xatti-harakatlar to'loqinidir. Bu hodisa psixologik jihatdan zaif yoki emotsional inqiroz holatidagi shaxslar, ayniqsa yoshlar orasida keng tarqalishi mumkin.

2. Mass-media vositalari, xususan, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy kontent platformalari, suitsid holatlarini to'g'ri va mas'uliyat bilan yoritmagan hollarda, salbiy psixologik oqibatlariga olib kelmoqda. O'tkazilgan so'rovnoma natijasida aniqlanishicha, yoshlarning katta qismi suitsid mavzusiga oid kontentlarni ko'rgan va bu ularda emotsional iz qoldirgan.

3. Suitsid xatti-harakatlarining shakllanishida ijtimoiy o'rganish nazariyasi (modeling) muhim ahamiyatga ega. Yoshlar o'zlarining psixologik muammolariga yechim topolmagan hollarda, media orqali ko'rilgan suitsid holatlarini muqobil yo'l sifatida qabul qilish xavfi ostida qolishadi.

4. Papageno effekti — umid, bardoshlilik va muammolardan chiqish yo'llarini ko'rsatuvchi ijobiy media kontentlar orqali suitsidal fikrlarning oldini olish mumkinligini ko'rsatmoqda. Media vositalarining mas'uliyatli yondashuvi bu borada hal qiluvchi rol o'ynaydi.

5. O'zbekiston sharoitida yoshlar orasida media savodxonlik pastligi va psixologik yordam tizimining cheklangani sababli, suitsid mavzusidagi kontentlarning salbiy ta'siri yanada kuchaymoqda. Bu holat sog'lom axborot muhitini yaratish, profilaktik choralarni kuchaytirish va psixologik yordamni ommalashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tavsiyalar

Olib borilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, Verter sindromi yoki Verter effekti zamonaviy axborot maydonida, ayniqsa yoshlar orasida jiddiy psixologik tahdid sifatida namoyon bo'lmoqda. Mass-media vositalarida suitsid holatlari hissiy, dramatik yoki romantik shaklda yoritilishi natijasida psixologik jihatdan zaif shaxslar orasida taqlidiy suitsid xatti-harakatlari yuzaga kelmoqda. O'tkazilgan so'rovlar, intervyular va statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida ham bunday holatlar real tahdid darajasiga yetgan bo'lib, profilaktika va axborot xavfsizligiga oid chora-tadbirlar zudlik bilan kuchaytirilishi lozim.

Avvalo, ommaviy axborot vositalarining suitsid mavzusini yoritishdagi yondashuvlari xalqaro axloqiy mezonlarga mos kelishi zarur. Suitsid usullarining tafsilotlarini ochib berish, bu hodisani qahramonlik yoki muqaddaslik tusida ko'rsatish, yosh auditoriyaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, Papageno effekti asosida, hayotiy muammolardan chiqish yo'llarini ko'rsatadigan, ijobiy motivatsiya beruvchi kontentlar orqali suitsidal fikrlarning oldi olinishi mumkin.

Shuningdek, yoshlar o'rtasida media savodxonligini oshirish bugungi kunda dolzarb zaruratga aylangan. O'quv yurtlarida axborot tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlardagi emotsional xavflarni anglash, ruhiy salomatlikka tahdid soluvchi kontentlardan himoyalanih bo'yicha ta'limiy dasturlar joriy etilishi lozim.

Yuqoridagi tavsiyalar asosida sog'lom axborot muhitini shakllantirish, yoshlarni ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ommaviy suitsidal xatti-harakatlarning oldini olish mumkin. Bu borada jamiyatning barcha qatlamlari – OAV, ta'lim tizimi, oilalar va mutaxassislar hamkorlikda harakat qilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Phillips, D. P. (1974). The influence of suggestion on suicide: Substantive and theoretical implications of the Werther effect. *American Sociological Review*, 39(3), 340–354.
2. Goethe, J. W. von. (1774). *Die Leiden des jungen Werthers* [Yosh Verterning iztiroblari]. Leipzig: Weygand.
3. Stack, S. (2005). Suicide in the media: A quantitative review of studies based on non-fictional stories. *Suicide and Life-Threatening Behavior*, 35(2), 121–133.
4. Pirkis, J., & Blood, R. W. (2001). Suicide and the media: Part I. Crisis: The Journal of Crisis Intervention and Suicide Prevention, 22(4), 146–154.
5. Niederkrotenthaler, T., Voracek, M., Herberth, A., Till, B., Strauss, M., Etzersdorfer, E., Eisenwort, B., & Sonneck, G. (2010). Role of media reports in completed and prevented suicide: Werther v. Papageno effects. *British Journal of Psychiatry*, 197(3), 234–243.
6. Bandura, A. (1977). *Social learning theory*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
7. WHO (World Health Organization). (2017). *Preventing suicide: A resource for media professionals* (Update 2017). Geneva: WHO Press.
8. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi (2024). *Yoshlar o'rtasida ruhiy salomatlik holati va suitsid statistikasi* (hisobot). Toshkent.
9. Abdurahmonov, B. (2022). Yoshlar psixologiyasi va ommaviy axborot vositalarining ta'siri. *Ijtimoiy fanlar yilligi*, 2(7), 45–52.
10. Karimova, D. (2023). Suitsid holatlarini yoritishda OAVning mas'uliyati. *Zamonaviy psixologiya jurnali*, 1(3), 14–19.

